

## QIYOSIY TILSHUNOSLIKDA MODALLIK KATEGORIYASI: TADQIQ VA TALQIN (FRANSUZ HAMDA O'ZBEK ERTAK, NAQLLARI MISOLIDA)

Oybek Quralbayevich MATYAKUBOV

Fransuz tili o'qituvchisi

Urganch davlat universiteti qoshidagi akademik litsey

Mustaqil tadqiqotchi

Buxoro davlat universiteti

Buxoro, O'zbekiston

## THE CATEGORY OF MODALITY IN COMPARATIVE LINGUISTICS: RESEARCH AND INTERPRETATION (BASED ON THE EXAMPLE OF FRENCH AND UZBEK FAIRY TALES)

Oybek Quralbayevich MATYAKUBOV

French teacher

Academic Lyceum under Urgench State University

Independent researcher

Bukhara State University

Bukhara, Uzbekistan

## КАТЕГОРИЯ МОДАЛЬНОСТИ В СОПОСТАВИТЕЛЬНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: ИССЛЕДОВАНИЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФРАНЦУЗСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК)

Ойбек Куралбаевич МАТЯКУБОВ

Учитель французского языка

Академический лицей при Ургенчском государственном университете

Независимый исследователь

Бухарский государственный университет

Бухара, Узбекистан [matyakubov.o@mail.ru](mailto:matyakubov.o@mail.ru)

UDC (UO'K, УДК): 81'362

### For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Matyakubov O.Q. Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: tadqiq va talqin (fransuz hamda o'zbek ertak, naqlari misolida) // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 1 (54). — B.97–116.

<https://doi.org/10.36078/1710232351>

**Received:** January 10, 2024

**Accepted:** February 17, 2024

**Published:** February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tilshunoslikda modallik kategoriyasining qo'llanishi va ifodalanishi haqida fikr yuritildi, nazariy asoslari tadqiq etilib, mavzuning dolzarbligi yoritilib berildi. Tilshunoslikda mavjud bo'lgan modallik kategoriyasiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi, olimlarning nazariy qarashlari bir tizimga solindi, modallik kategoriyasi ta'riflandi. Modallik funksional-semantik kategoriyasi o'zining ko'p qamrovli tadqiqot obyekti hisoblanib, uning asosiy mohiyati va vazifasi shaxs va zamon kategoriyasi bilan birga gapning asosiy bo'laklarini shakllantirib, so'zlovchining real borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalashda muhim rol o'ynaydi, gap mazmunini baholashda subyektiv-modallik xususiyatlarini ochib berishda gapning emotsional-ekspressivlik mazmunini namoyon qilishda aksiologik modallik keng semantik maydonni egallaydi, matnlarni tahlil qilishda va ularning lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishda matn modalligi katta rol o'ynaydi va mazkur masalani o'rganish badiiy matn sharoitida o'ta dolzarbdir.

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

**Kalit soʻzlar:** signifikativ; referensial; modus; diktum; lisoniy birlik; transliteratsiya; transkripsiya; tasviriy tarjima; imo-ishora tarjimas; realiya; ekvivalent.

**Abstract.** This article highlights the use and expression of the modality category in linguistics, researches its theoretical foundations, and examines the relevance of the work. Scientific studies on the category of modality existing in linguistics are analyzed, the theoretical views of scientists are put into one system, and the category of modality is defined. The functional-semantic category of modality is considered a comprehensive research object, and its main essence and function, together with the person and tense category, form the main parts of the sentence and play an important role in expressing the speaker's attitude to real existence. Axiological modality is essential in revealing the subjective-modality features and the emotional-expressive content of a sentence, analysing the texts' linguocognitive features, the textual modality issues, etc.

**Keywords:** significant; referential; mode; dictum; linguistic unit; transliteration; transcription; pictorial translation; sign translation; reality; equivalent.

**Аннотация.** В статье рассматривается использование и выражение категории модальности в лингвистике, исследуются ее теоретические основы. Анализируются научные исследования по категории модальности, существующие в лингвистике, теоретические взгляды ученых сводятся в одну систему, определяется категория модальности. Функционально-семантическая категория модальности считается комплексным объектом исследования, а ее основная сущность и функция вместе с лицом и категорией времени образуют основные части предложения и играют важную роль в выражении отношения говорящего к реальной действительности. аксиологическая модальность занимает широкое семантическое поле при выявлении субъективно-модальных особенностей при оценке содержания предложения, при раскрытии эмоционально-экспрессивного содержания предложения, при анализе текстов и раскрытии их лингвокогнитивных особенностей.

**Ключевые слова:** значимое; референциальное; модус; языковая единица; транслитерация; транскрипция; изобразительный перевод; знаковый перевод; действительность; эквивалент.

### Kirish

Inson tili barihoya murakkab boʻlib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish oʻta murakkabdir. Shunday boʻlsa-da, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalarda turli oqim namoyandalari tilni tadqiq etishni eng maqbul yoʻl hisoblab, bu yoʻlda oʻrganish obyektini va uning mohiyatini aniq koʻrsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini koʻrsatadi.

Tilshunoslik fani tilda boʻlayotgan barcha oʻzgarishlarni atroflicha oʻrganadi. Har qanday fan esa, oʻz navbatida, ehtiyoj tufayli yuzaga keladi va rivojlanadi. Jamiyat oʻz taraqqiyotini taʼminlash uchun hamma davrda ilm-fanni rivojlantirish va uning muammolarini tadqiq qilishga alohida eʼtibor berib keladi. Zero, "jamiyatda, uning taraqqiyotida ijtimoiy fanlarning oʻrni beqiyos. Ular odamning aqliy kamolotga erishuvida katta

ta'sir kuchiga ega" (1, 504).

"Tabiat va jamiyatdagi turfa hodisalarning mohiyati hamda qonuniyatlarini ibtidoiy bir tamoyillarda bo'lsa-da, inkishof etishga uringan ilk aql sohiblarining diqqatini til, xususan, ilohiy va badiiy so'z tilsimi muammolari jiddiy band etgan. Bu yorug' diqqat-u shuur tetapoya davridan to bugungi yetuklik davriga kelguncha til mohiyatini aniqlashning ming bitta yo'lini sinab ko'rgan bo'lsa-da, bu mohiyatga to'la yetib borishning uddasidan chiqa olganicha yo'q" (21, 80).

Modallik — og'zaki nutqning ajralmas funksional alomatlaridan biri. Modallik kategoriyasi tilning eng murakkab va muloqotning mazmunga boy jihatlaridan hisoblanadi. Mazkur kategoriya nafaqat tabiiy va ijtimoiy fan sohasi olimlarini, balki tilshunos olimlarni ham birdek qiziqtirib kelayotgan muammolardan biri bo'lib, leksikologiya, frazeologiya, so'z yasalishi, morfologiya, kognitiv va matn tilshunosligida keng qo'llanmoqda.

Tilda modallik kategoriyasi davrlar o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib borayotgani hech kimga sir emas. "Modallik" atamasi bizni o'rab turgan keng borliq, olamdagi tabiat hodisalari, voqeliklar spektrini anglatish uchun qo'llanilib, o'zining turli xil ma'nolari, grammatik xususiyati va har xil til sathlarida qo'llanishi bilan ajralib turibdi. Funksional jihatdan modallik turli xil vositalar bilan, jumladan, grammatik, leksik va frazeologik vositalar yordamida o'z ifodasini topadi.

Tilshunoslikda modallik tushunchasi so'zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi ma'no kategoriyasi sifatida qaraladi, ya'ni obyektiv voqelik so'zlovchi ongida aks etadi va u o'z munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida bildiradi. Demak, so'zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotsional munosabatini bildiruvchi subyektiv modallik garchi gapning faollashtiruvchi qismi bo'lsa ham, ularning tabiati va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni faqat grammatik rejada "turli sathlilik", semantik rejada so'zlovchining "munosabatini ifodalash" belgisi ostida birlashtirish mumkin, xolos.

Modallik kategoriyasi lisoniy birliklarda namoyon bo'lib, obyektiv modallik diktunga, subyektiv modallik esa gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kiradi. Bu holda sintaktik modallik gapni shakllantirishdagi o'rni va subyektivning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab ikki guruhga — obyektiv va subyektiv modallikka bo'linadi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik zamiridagi qo'shimcha modallikdir.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

"Modallik (lotincha "modalis" — o'lchov, usul) — fikrning voqelikka bo'lgan munosabatlarining turli xil ko'rinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarni subyektiv tarzda tasniflashning turlicha ko'rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya" (22, 38).

"Modallik kategoriyasi deb, qator funksional-semantik modallik kategoriyalarining (tasdiq-inkor, real-noreal, so'roq, undov, payt, sabab, maqsad, qiyos, shart, niyat, buyruq, natija, to'siqsiz, o'rin, inkor, tasdiq, mavjudlik, holat, maslahat, iltimos, talab, mumkinlik va hokazo) shakllanib, rivojlanib, turli xil ma'no nozikliklariga qo'shib, uyg'unlashib keng

funksional-semantik maydonni hosil qilish jarayonida soʻzlovchining obyektiv borliqqa munosabatini anglatib, soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikativ muloqotning amalga oshishida ifodalanayotgan semantik maʼnolar majmuiga aytiladi” (13, 9). Maʼlumotlarda keltirilishicha, “modallik” tushunchasini fanga birinchilardan boʻlib Aristotel olib kirgan. Oʻsha davrdan buyon modallik bir qancha falsafiy, mantiqiy va tilshunoslik bilimlarining asosiy mavzusi boʻlib kelmoqda. Aristotel modallik kategoriyasining mohiyatidan kelib chiqib, uni ikki aspektga — “obyektiv borliqdagi harakatning amalga oshishi mumkinligi yoki uning haqiqatga oshmasligi mumkinligi (ehtimolligi)”ni ajratadi. Olim modallik mohiyati haqida shunday deydi: “Bu eng oliy mantiqiy tushunchalar boʻlib, obyektiv borliqning asosiy, muhim xususiyatlari kategoriyalarda aks etadi va ular asosida boshqa tushunchalar hosil boʻladi. Ular moddiy dunyo bilan bogʻlanganligi uchun kategoriyalar tabiat narsalari orasidagi bogʻlanish va ularning munosabatini ifodalab, gaplarning asl mohiyatini anglatadi” (4, 25).

Sh. Balli modal maʼnolar tarkibiga “hukmning turli nozikliklari”, “sezgi va istak”larni kiritadi va modallik kategoriyasini quyidagicha taʼriflaydi: “Modallik — gapning qalbi, yuragidir. U feʼllar, mayllar, intonatsiya, savol va buyruq shakllari: modal harakat (ishora), undov soʻzlar, atash va koʻp sonli usullar bilan ifodalanadi” (5, 44).

M. K. Xellidey fikricha, “Modallik — muloqotning muhim funksional xususiyati, shaxs orasidagi funktsiya, muloqotda qatnashayotgan soʻzlovchining ifoda shakli hisoblanadi” (27, 197).

Modallik obyektiv va subyektiv boʻlishi mumkin. “Obyektiv modallik bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabati (real va noreal, imkoniyat va imkoniyatsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi)ni anglatadi hamda grammatik va leksik vositalar (mayl, modal soʻz, yuklama, intonatsiya) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa soʻzlovchining aytilayotgan fikr (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho)ga munosabatini koʻrsatadi va soʻz tartibi, intonatsiya, leksik takror, modal soʻz, yuklama, undov, kirish soʻz, soʻz birikmasi va kirish gaplar bilan ifodalanadi” (22, 42).

M. M. Bikel oʻz qarashida modallikni mazmunan obyektiv ham, subyektiv ham tushuncha boʻlmay, uni nisbatan obyektiv hisoblaydi: “Modallik bu — voqelikni soʻzlovchi — “men” subyektivining nuqtayi nazarini bilan tushunish, lekin bu nuqtayi nazar “birinchi va oxirgi marta” tilning hozirgi holati uchun tilning oʻzining vositalari orqali umumiydashgan, mujassamlashgandir” (6, 17).

T. I. Krasnovaning taʼkidlashicha, obyektiv va subyektiv modallik kategoriyalari oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogʻlangan: “Obyektiv va subyektiv modallik kategoriyalari oʻzaro bogʻliq va ularni bir-biridan faqat nazariy yondashish orqali ajratish mumkin” (16, 189).

Ensiklopedik lugʻatlarga murojaat qilganimizda obyektiv va subyektiv modallik kategoriyalarini: “Obyektiv modallik bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabati (real va noreal, imkoniyat va imkoniyatsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi)ni anglatadi hamda grammatik va leksik vositalar (mayl, modal soʻz, yuklama, intonatsiya) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa soʻzlovchining aytilayotgan fikr (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho)ga

munosabatini ko'rsatadi va so'z tartibi, intonatsiya, leksik takror, modal so'z, yuklama, undov, kirish so'z, so'z birikmasi va kirish gaplar bilan ifodalanadi" (22, 46), — deya ta'kidlanganligini kuzatdik.

Tilning eng murakkab va keng qamrovli modallik kategoriyasiga bo'lgan munosabatni hamda modallik kategoriyasining ifodalanishini tahlil qilar ekanmiz, mazkur kategoriyaga bo'lgan munosabatning turli-tumanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

V. V. Panfilovning ta'kidlashicha, "Tilda modallik kategoriyasi kabi turli-tuman, qarama-qarshi fikr bildirilgan va uning tildagi alohida ma'nolarining rang-barang tabiatichalik ko'p talqin qilingan kategoriya yo'q" (24, 80).

F. Bryuno tilshunoslikda mavjud bo'lgan "ma'nodan shaklga" tamoyiliga asoslanib, istak, taxmin, ishonch, iltimos, inkor kabi modal tushunchalarning qanday yo'llar bilan ifodalanishini tahlil qilib, modallikni ikki sinfga ajratgan: real va eventual (taxmin). F. Bryuno fikricha, "Modallik kategoriyasini ifodalovchi vositalarga ohang (iltimos, nafrat, tasdiq, ajablanish, xursand bo'lish, zaruriyat, rad etish, ruxsat etish va h.k.), zamon (modal fe'llar, modal to'ldiruvchilar: ravish, ravishli ibora, ko'makchilar, bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplar), so'z tartibi va fe'l mayllari kiradi" (26, 81).

V. G. Gak modallik turiga so'zlovchi va xabar beruvchi munosabatidagi umumlashganlikni asoslaydi. V. Gakning fikricha, "Modallik uch bosqichga bo'linadi:

1) xabar berish xususiyatiga ko'ra, deklarativ (Je dis que Pierre viendra) va performativ (J'ordonne que Pierre vienne) modallik;

2) voqelikni bilish xususiyatiga ko'ra, ishonchlilik (je sais) va ehtimollik (Je suppose), (to'liqsiz ishonchlilik);

3) munosabat xususiyatiga ko'ra, istak (je veux qu'il vienne), (noistak va rozilik) va norozilik subyekt hissiyotining ifodalanishi (uyg'onishi) bilan bog'liq" (9, 44).

Y. Y. Kordi modallik kategoriyasining bo'laklari sifatida gapning to'rtta funksional tipini taklif qiladi:

1) darak,

2) so'roq,

3) buyruq,

4) istak (15, 53).

Z. A. Getman va T. P. Arxipovich mantiqiy-grammatik modallik kategoriyasining matndagi ikki dialogik matnlar hamda xalqaro hujjat matnlari turlarini o'rgangan. Ushbu matnlarda bir-biriga qardosh bo'lmagan ingliz va ispan tillari materialida modallik kategoriyasi umumiy matn kategoriyasi sifatida tahlil qilingan. Ular til materiali o'rnida ingliz va ispan tillarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari haqidagi hujjatlaridan foydalangan hamda matn modalligini beshta sathda tahlil qilgan: "Modallik kategoriyasi umumiy matn kategoriyasi sifatida beshta turga bo'linadi:

1) modallik motivatsiyasi — modallik remitenti (axborotni uzatuvchi) va modallik respondententi — axborotni qabul qiluvchi;

2) modallik artefakti — matn yordamida muloqotni ta'minlash (moddiylashtirish);

3) kognitiv modallik — olamni bilish tizimi;



4) impozitiv modallik — responedent ongiga (aqliy) hujum;

5) emotiv modallik — ikkala kommunikantlar tomonidan matnning tushunish va uni ekspressiv baholash (10, 34)”.  
S. O‘. Boymirzayeva o‘zbek tili materiali asosida matn modalligi muammosini o‘rganadi. Modallik kategoriyasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini, matnning kognitiv va ma‘noviy maydonida faollashuvchi ko‘rsatkichlarini aniqlaydi. Matn modalligining mazmuniy turlarini farqlash, ularni tavsiflashga harakat qiladi. Olima matn modalligini tahlil qilar ekan, asosiy e‘tiborni subyektiv modallik turlarining matnda voqelanishiga qaratadi: “...subyektiv modallik quyidagi turlarga bo‘linadi: emotiv, epistemik, deontik va aksiologik” (7, 151).

M. A. Abdurazoqov deontik modallikni uchta komponent bilan izohlaydi: a) modallik xarakteri; b) modallik mazmuni; v) modallik sharti. Tilshunos har bir modallik turiga quyidagicha ta‘rif beradi: “Modallik xarakteri harakatning bajarilishi kerak bo‘lgan (devoir fe‘li bilan), mumkin bo‘lgan (pouvoir fe‘li bilan) yoki bajarilishi mumkin bo‘lmagan (ne pas pouvoir faire modalligi bilan) til me‘yorlariga muvofiq ifodalanadi. Modallik mazmuni zamirida esa vaziyat ishtirokchisi, ya‘ni istakni ifodalovchi modal subyekt turadi” (2, 28).

Tilshunoslikda tillarning paydo bo‘lish tarixini, genealogik tasnifini yaratgan, nomlarning kelib chiqishi haqidagi ta‘limotni rivojlantirgan, fenomenologiya asoschisi, mantiqshunos Leybnis mantiq ilmiga oid fikrlari asosida modallik kategoriyasiga mantiqiy yondashadi:

“Modallik tizimiga tasdiq, mumkin, zaruriyat va inkor modal kategoriyalari kiradi. Unga asosan umumiy tasdiq, ayrim umumiy inkor darak va ayrim tasdiq darak gaplarning modallik hususiyati arifmetikada tabiiy sonlar yordamida izohlanadi” (19, 74).

D. P. Lopareva ham modallik kategoriyasi mantiq va psixologiyaga asoslangan holda keng tushunchani hosil qiladi, bayon etilgan fikr bu — matn degan g‘oyani ilgari suradi. Asosiy e‘tiborni subyektiv qurilmaning modalligini hosil qilishga qaratadi: “Har qanday matn modal doiraga ega, subyektiv qurilma modalligi emotiv, epistemik, deontik va kompozitiv xususiyatga ega bo‘lgan semantik operatorlardir, chunki ular subyektiv munosabatlarni ifodalashga xizmat qilib, matn mazmuniga bo‘lgan munosabatini namoyon qiladi” (20, 13).

J.A.Yoqubov o‘z tadqiqotida mantiq bilan tilshunoslikni o‘zaro bog‘lab modallik kategoriyasining semantik xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Olimning fikricha, “modallik kategoriyasi bir tomondan mantiq ilmi bilan bog‘lab tahlil qilinsa, ikkinchi tomondan mazkur semantik kategoriya tilshunoslikda lisoniy birliklar bilan ifodalanadi. Mantiq va tilning hozirgi aloqalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu ikki fandagi nazariy tushunchalarning mos tushishi bir-biridan farqlanadigan tillar taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi” (12, 62). Olim tilshunoslikda mavjud bo‘lgan modallik kategoriyasiga oid ilmiy ishlarni tahlil qilib, olimlarning nazariy qarashlarini bir tizimga solib, modallik semantik kategoriyasining til vositalari bilan ifodalanishini quyidagi to‘qqiz guruhga bo‘lgan:

1. So‘zlovchi aytayotgan fikrning gapdagi maqsadi, munosabati yoki gapning kommunikativ funksiyasi. Bu semantik baholashning xususiyati shuki, hamma gaplar o‘z funksiyasidan kelib chiqib, kommunikativ guruhga (darak, so‘roq, buyruq) bo‘linadi. Bu ma‘nolarning majmui quyidagi til

vositalarini o'z ichiga oladi: morfologik (fe'l mayllari) va sintaktik (gap modellari).

2. So'zlovchining gap mazmunini real va noreal nuqtayi nazardan baholashi. Bu modallik ma'nolari mayl shakllari, fe'l zamonlari, shuningdek, ba'zi bog'lovchi va yuklamalar yordamida ifodalanadi.

3. So'zlovchining gapda ifodalangan voqeliklarni (mumkin-ehitimol, zarur-kerak, xohish-istak) subyekt yordamida baholashi. Bu semantik ma'nolar modal fe'llar va til qurilmalari yordamida beriladi.

4. Tasdiq va inkor ma'nolarini ifodalovchi narsalar orasidagi mavjudlik yoki mavjud emaslik holatini anglatuvchi munosabatlar, belgilar va gapdagi real harakatni anglatuvchi voqelik. Ikkala semantik tushuncha taqqoslansa, birinchisining markerlari (ko'rsatkich belgilari) yo'q, ikkinchisining maxsus markerlari mavjud bo'lib, ular grammatik, leksik vositalar yoki yuklamalar orqali ifodalanadi.

5. Semantik ma'nolarning ikki turini baholash: a) so'zlovchining voqelikni (mumkin, zarur yoki istak) baholashi; b) so'zlovchining unga xabar qilingan voqelikka ishonchlilik darajasi. Ikkala baho turli tilda modal ravishlar, kirish so'zlar, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar bilan, shuningdek, modal fe'llar (mumkin, kerak) va infinitiv qurilmalar yordamida ifodalanishi mumkin.

6. So'zlovchining gap mazmunidagi his-tuyg'u va sifat fazilatlarining ifodalanishi. Bu semantik tushunchalar undov so'zlar, leksik so'zlar (yaxshi, yomon, ajoyib, uyat, qo'rqinch, dahshat va h.k.) va ohang yordamida beriladi.

7. Modallik obyektiv va subyektiv kategoriya bo'lib, gap mazmunining voqelikka munosabatini bildiradi. Obyektiv modallikning asosiy ifodalanish vositasi hisoblangan fe'lning grammatik kategoriyasi mayl yordamida amalga oshadi, subyektiv modallik esa leksik vositalar yordamida ifodalanib, ularga modal so'zlar, modal fe'llar va yuklamalar kiradi.

8. Konnotativ modallik ma'nolarini ifodalash: sevis, erkalash, hurmat, kichraytirish, kamsitish. Ushbu modallik turi hozirgi o'zbek tilida o'zbek millatiga xos bo'lgan -gina (-kina, -qina), -cha, -choq, -chak, -loq, -jon, -xon, -oy, -voy, -lar kabi affiks va affikssimonlar so'zlovchining obyektiv borliqqa, o'z nutqiga bo'lgan modal munosabatini bildirib keluvchi subyektiv baho shakllaridir.

9. Modallik alohida til kategoriyasi sifatida mavjud emas. Aniqlik mayli (indikativ) modallik kategoriyasini ifodalamaydi (12, 65).

E. N. Aliyeva qiyosiy jihatdan mumkin emaslik kategoriyasini o'rganish va uni keng ko'lamda tadqiq etish, shuningdek, ushbu kategoriya rus, ingliz va lezgin tillarida qanday yo'llar bilan ifodalanishini tahlil qilgan:

“Mumkin emaslik modalligi funksional-semantik modallik kategoriyasining asosiy struktur-komponenti hisoblanib, modal mikromaydon sifatida faoliyat ko'rsatadi. Mumkin emaslik mikromaydon semantikasi til vaziyatini tavsiflaydi. Mazkur mikromaydon asosiy baholash modallik doirasini hosil qilib, u mustaqil ifoda birligi xususiyatiga ega” (3, 97).

A. D. Kaksin xantiy tilida modallikning ifodalanishida illyustrativ material sifatida ko'proq og'zaki nutq frazalarini tanlab oladi. Xantiy tilida mumkinlik, istak, niyat, zaruriyat, kerak-lozim kabi modal ma'nolarni va

ularning ma'no nozikliklarini ifodalovchi vositalarning ko'pligini kuzatadi. A. D. Kaksin ta'biricha, "Xantiy tilida mumkinlik va mumkin emaslik ma'nosi ko'proq maxsus qurilmalar bilan beriladi, fe'l mazmuni esa infinitivning asosiy shakli yordamida uzatiladi, qiziqarlisi va eng ko'p qo'llanilayotgan so'zlarning semantikasi pis — "mumkinlik" va mos (mas) "zaruriyat" hisoblanadi. Ikkala so'z ham og'zaki nutqda qo'llanilib, turli xil modal ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, "mos" modal so'zi ikki xil semantik ma'noni anglatadi: 1) so'zlovchi tomonidan ushbu so'z predikativsiz tasdiqni ifodalasa, 2) uchinchi shaxs suhbatdosh tomonidan ko'p hollarda mos modal so'zi zaruriyat bilan birga istakni ham ifodalaydi" (14, 56).

J. Muir modallik kategoriyasini ingliz tili nuqtayi nazaridan o'rganadi, modal ma'no nozikliklarini esa alohida ajratib, modallik bo'limiga kiritadi: "Fe'l shakllari mayl deb atalib, ular tasdiq, so'roq va buyruq kabi modal ma'nolarni ifodalaydi" (23, 66). Shuningdek, J. Sinklarning ingliz tilining og'zaki nutq grammatikasidan kelib chiqib, maylga to'rtta qurilma tipini kiritadi: "So'roq, darak, buyruq va fe'l kesimi bo'lmagan mayl qurilmalar (masalan, Yes; At once, Sir!; Good evening; certainly) modal fe'llar bilan kelgan qurilmalar modallik bo'limida ifodalanadi" (28, 62).

1963-yili germanist A.T. Krivonosov (17, 47) tomonidan fanga "modal yuklamalar" tushunchasi kiritilgan.

Ma'lumki, "modal yuklamalar — atash vazifasi, lekin voqelikni (modal) ifoda qiladigan, so'zlovchining o'z fikriga munosabatini hamda fikrni tasdiqlash, inkor etishni ifodalaydigan, so'zlarga yoki gapga turli ma'no (so'roq, ta'kid, kuchaytirish, ayirish, chegaralash, o'xshatish, qiyoslash) berish uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z turkumidir" (25, 27).

Yana bir olim S.I.Gorbachevskaya nemis tilidagi aber, auch, doch, ja yuklamalarini tahlilga tortar ekan, ushbu lisoniy birliklar matnlar semantikasida kengroq qo'llanishini ta'kidlaydi. Modal yuklamalar obyektiv voqelikni baholash bilan birga, pragmatik xususiyatlarni ifodalashi hamda grammatik ma'nolarni ochib berishda katta rol o'ynashi olim tomonidan asoslab beriladi. Olim gapning emosional-ekspressiv xususiyatini baholaydi: "... yuklamalarning hayron qolish, istak (aber), ishonchsizlik va niyat ko'rsatkichi (auch), ta'na, rozilik (doch), tasdiqni belgilash (ja) kabi semalari modal yuklamalar turiga kiradi, nutqda keng qo'llaniladi" (11, 21).

E. B. Krilova dat tilidagi modal yuklamalarning funksional-semantik xususiyatlarini yoritadi: "Modal yuklamalar funksional-semantik xususiyatlari jihatidan uch guruhga bo'linadi:

problematik modal yuklamalar (nok, vel, vist);

afirmativ modallikni ifodalovchi modal yuklamalar (da, jo, dog);

faktik modallikni ifodalovchi modal yuklamalar (bare, blot, kun, lige)" (18, 31).

Tilshunoslikda ushbu kategoriyani ifodalashda so'zlovchi bilan predmet orasidagi munosabatda ohang katta rol o'ynaydi. Muloqotning asosiy maqsadi tinglovchining ruhiyatiga ta'sir o'tkazish va uning hissiy holatini o'zgartirishdir. Shu sababli emosional ta'sir o'tkazish matnning yaratilishida, lisoniy birliklar tanlovida muhim omil sanaladi. Qolaversa,



modallikning asl mohiyati matn tarkibida namoyon bo‘ladi va kognitiv-diskursiv hodisa sifatida talqin qilishga undaydi.

Shu o‘rinda biz, V. V. Vinogradovning fikriga qo‘shilamiz: “Matndagi modallik bilan nafaqat sinxron, balki diaxron daraja ham bog‘liqdir. Modallik kategoriyasi universal kategoriya sifatida muhokamaga muhoj, chunki u har xil tizimdagi tillarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi” (8, 74). Qolaversa, tilning asosiy vazifasi insonlarning o‘zaro muloqotini, kommunikatsiyani ta‘minlashdan iboratdir.

Modallik kategoriyasini ifodalashda fe‘lning aniqlik, buyruq, istak, shart mayllari katta rol o‘ynaydi, ish-harakatning voqelikka munosabatini ifodalaydigan fe‘l mayllari tilning turli xususiyatlarini ochib berishda modallik kategoriyasi bilan uyg‘unlashadi. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin.

1-jadval

Fransuz tilida	O‘zbek tilida
Elle n’est pas revenue. Elle <i>serait partie.</i>	U qaytib kelmadi. U <i>ketgan bo‘lsa kerak.</i> (taxmin)
<i>Pourvu que</i> le supermarché soit ouvert.	Ishqilib, savdo markazi <i>ochiq bo‘lsinda!</i> (istak)
<i>Qu’elle prenne</i> le livre à la bibliothèque !	U kitobni kutubxonadan <i>olsin!</i> (buyruq)
Nous sommes contents que vous <i>soyez heureux.</i>	Biz sizni baxtli <i>ekanligingizdan mamnunmiz.</i> (real)
Vous <i>devriez</i> les aider.	Siz ularga yordam <i>berishingiz kerak edi.</i> (tasdiq)
<i>Il est possible que</i> nous partions demain.	Biz ertaga <i>ketishimiz mumkin.</i> (mumkin)
Le professeur <i>veut que</i> nous écrivions sans fautes.	O‘qituvchi xatosiz <i>yo‘zishimizni xohlaydi.</i> (taqiqlash)
<i>Je doute</i> qu’il fasse beau demain.	Men ertaga ob-havoning yaxshi <i>bo‘lishiga shubhalanaman.</i>

Modallik kategoriyasining namoyon bo‘lishida bu qadar keng imkoniyatlar mavjudligi, so‘zsiz, ushbu kategoriyaning umumliisoniy hodisa ekanligidan va uning o‘rganilishi til qurilishining mohiyatini anglash uchun g‘oyat muhimligidan dalolat beradi.

“Modallik kategoriyasining har bir til sathida voqelanishi til tizimi birliklarining keng imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir karra isbotlaydi” (7, 89).

Shu o‘rinda J.A.Yoqubovning “Modallik kategoriyasiga bu qadar jiddiy e‘tibor berilishining sababi, birinchidan, tekshirish obyektining o‘ta murakkabligi va keng qamrovliligi bo‘lsa, ikkinchidan, bu lingvistikaning doimiy muammolaridan biri — til va tafakkur munosabatlarining bir ko‘rinishidir” (13, 12) degan fikriga qo‘shilamiz. Qolaversa, tilshunoslik bilan tafakkurning uzviy aloqasi til mohiyatini aniqlab, uni, imkon boricha mantiqqa yaqinlashtiradi. Albatta, bunda har bir tilning xususiyati hisobga olinadi.

Fransuz ertaklarida “mumkinlik-shart” kategoriyasi modal fe’l *pouvoir*, modal fe’l *falloir*, modal so‘z *mumkin* yoki modal fe’l qurilmasi *Il est possible* kabi til vositalari orqali hamda istak kategoriyasi *vouloir* modal fe’li esa emosionallik, mumkinlik, istak, zaruriyat, reallik bilan berilishi mumkin: (FE) «*Cendrillon sourit et leur dit: «Elle était donc bien belle? Mon Dieu! que vous êtes heureuses! ne pourrais-je donc pas la voir! Hélas, mademoiselle Javotte, prêtez-moi votre habit jaune, que vous mettez tous les jours. Vraiment, dit Mlle Javotte, je suis de cet avis! Prêtez votre habit à un vilain comme cela! il faudrait que je fusse bien folle!» Cendrillon s’attendait bien à ce refus, et elle en fut bien aise, car elle aurait été grandement embarrassée si sa soeureût bien voulu lui prêter son habit» (CF.C p.17); «Je voudrais bien...je voudrais bien...» Elle pleurait si fort qu’elle ne put achever. Sa marraine, qui était fée, lui dit:»; « Tu voudrais bien aller au bal, n’est-ce pas? — Hélas!oui, dit Cendrillon ensoupirant» (CF.C p.12).*

Ushbu misollarda mumkinlik — **ne pourrais-je**, istak-tu **voudrais bien, eût bien voulu**, zaruriyat — **il faudrait, qu’elle ne put achever**, reallik-**je voudrais** kabi ko‘plab modallik kategoriyasining turlari qo‘llanilmoqda. Shuningdek, *pouvoir* modal so‘z *mumkin* yoki modal fe’l qurilmasi kabi til vositasi orqali **plus que parfait subjonctif (1)** zamonida va istak kategoriyasi *vouloir* modal fe’li bilan berilib, u turli xil zamonlarda, jumladan, **Passé simple (2)** va **Conditionnel présent (2)da** qo‘llanilmoqda.

Modallik kategoriyasi birinchi gapda *falloir* (kerak, zarur) modal fe’li bilan kelib, to‘ldiruvchi ergash gapning bosh gapida o‘z ifodasini topgan. Bunda modal fe’l **Conditionnel présent (1)** zamonida kelmoqda.

Shuningdek, modallik kategoriyasi faqatgina modal fe’llar bilan ifodalanmay, balki boshqa lisoniy birliklar bilan ham berilishi mumkin. Masalan, **intensivlik si (2)** yuklamasining **fort, bien (3)** ravishlari bilan birgalikda kelishi gapning semantik ma’nosini yanada kuchaytirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa, reallik kategoriyasi *vraiment* so‘zi orqali berilmoqda. Misollarda maslahat va emosionallik ma’nolari ham mavjud bo‘lib, ular gaplarning modallik xususiyatlarini yanada ochib berishga xizmat qilmoqda.

Sh.Perro ertaklarida mumkinlik-shart kategoriyasi turli xil lisoniy birliklar bilan berilmoqda: 1. “*Kuloyim o‘gay opalariga eng yaxshi maslahatlar beribdi va: “Istasangiz, sochlaringizni ham o‘zim turmaklab qo‘yaman”, — debdi*” (OG‘E, 51); 2. “*Sho‘rlik qizcha: “Men..., men... deyishdan nari o‘tolmabdi. — “Bazmga borging kelyaptimi?” — deb so‘rabdi enaga. — “Ha, judayam borgim kelyapti”, — deb xo‘rsinibdi Kuloyim*” (OG‘E, 52); 3. “*Kuloyim jilmayib, ularga debdi: “Uni juda chiroyli dedinglarmi? Muncha baxtli bo‘lmasangizlar, opajonlarim? Shunday go‘zal malika bilan tanishibsizlar. Men ham uni bir ko‘rsam bo‘larmikan. Opajonim Javetta, har kuni kiyib yuradigan sariq ko‘ylagingizni berib turing”; — “Rostdan- a, — debdi Javetta, — sen go‘lahiga oppa-osongina ko‘ylagimni berib qo‘yib, jinni bo‘libmanmi?”. Kuloyim bundan ortiq javobni kutmagan ekan ham, u hatto bunday javobdan xursand ham bo‘libdi, negaki opasining ko‘ylagini kiyib yurishni u aslo istamayotgan ekan”* (OG‘E, 57).

Mumkinlik kategoriyasi **o‘ta olmoq (2)** modal fe’li yordamida, istak kategoriyasi **istamoq-xohlamoq** modal fe’llari bilan (1,3) va fe’llarning

analitik shakllari **borging(m) kelyapti** (2,3), **ko'rsam bo'larmikin, berib turing** (3) bilan ifodalanmoqda.

Fransuz va o'zbek ertaklarida **mumkinlik** kategoriyasi, modal fe'lining qo'llanishi turli semantik ma'nolarni ifodalaydi. Ertak misollarida **mumkinlik** ma'nosi payt, ruxsat, maslahat, holat tushunchalari bilan bog'langan. Bunday ma'nolarning ifodalanishida turli leksik vositalar qo'llaniladi: (FE) 1. «*Tu vois bien que nous ne pouvons plus nourrir nos enfants; je ne saurais les voir mourir de faim devant mes yeux. Ah! s'écria la bucheronne, pourrais — tu bien toi-même mener perdre tes enfants?*» (ChP.PChR, 22). 2. «*Il en avait déjà empoigné un, lorsque sa femme lui dit: «Que voulez-vous faire à l'heure qu'il est? N'aurez-vous pas assez de temps demain matin?»*» (ChP.PChR, 28).

Yuqoridagi fransuz ertaklaridagi misollarda **mumkinlik** kategoriyasi so'roq gapda **pouvoir** (1), istak kategoriyasi esa **vouloir** (2) modal fe'llari bilan qo'llanilmoqda. Birinchi gapda **mumkinlik** ma'nosini ifodalashda prezens indikativ va kondisional mayl qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi misolda istak kategoriyasi prezens indikativda ifodalanmoqda. Berilgan misollarda so'roq mazmuni inversiya va intonatsiya yordamida hosil bo'lgan. Birinchi gapda yana boshqa semantik ma'noni, jumladan, norozilik tushunchasini anglab olish mumkin. Temporallik kategoriyasi fe'l mayllari va leksik so'z **de temps / demain matin** (2) orqali o'z ifodasini topgan. Shuningdek, «*O'zing ko'rib turibsan, bolalarga yedirishga uyda hech vaqo qolmadi. Ularning ko'z o'ngimizda ochlikdan o'lishlarini istamayman Nahotki, o'z qo'ling bilan o'z bolalarini o'rmonda adashtirib kelmoqchi bo'lsang*» — debdi xotini; U (Ogr) bolalardan birining qo'lidan tutgan ekan hamki, xotini so'rab qolibdi: «*Yarim kechada nima qilmoqchisiz? Ertaga ham kun bor-ku?*» (OG'E, 75–81).

O'zbek ertagida esa gapda tugallangan harakat ifodalaniib kesim yaqin o'tgan zamon fe'li bilan berilgan. O'zbek tilidagi so'roq gaplarning fransuzcha so'roq gaplardan farqi shundaki, o'zbek tilida ko'pchilik so'roq gaplar egasiz so'roq buyruq gaplar shaklida qo'llaniladi. Bu gaplarda ham ega qo'llanilmagan. Ammo ushbu gapda his-hayajonni, fransuz tilida taajjub va hayratlanishni anglatib kelgan undov so'z: **Ah!** O'zbek tilida (**nahotki**) ham bor. Shuningdek, o'zbek tilida so'roq ma'nosi **nima qilmoqchisiz** iborasi vositasida berilmoqda.

Birinchi misoldagi fransuz va o'zbek ertaklarida modallikning holat+mumkinlik+istak turlari, ikkinchi misolda esa fransuz va o'zbek ertaklarida modallikning istak+temporallik+buyruq+holat turlari bilan ifodalanganligi kuzatiladi.

Mumkinlik kategoriyasini ifodalovchi his-hayajon, xohish va istak, quvonch va qayg'u, talab va buyruq kabi ruhiy holatlarni ham uchratish mumkin. Sh.Perroning «**Jimjiloqvoy**» ertagida undov gaplarda mumkinlik kategoriyasini ifodalovchi his-hayajon, xohish va istak, quvonch va qayg'u kabi ruhiy holatlar muhim rol o'ynaydi.

2-jadvalga qarang:

Modallik turlari	Fransuz tili	O'zbek tili
Emosionallik istak	1. <i>Ah, dit-il, voiladonc comme tu veux me tromper, maudite femme!</i> (ChP.pp.28)	1. <i>Ha, badbaxt xotin. Meni aldamoqchi bo'ldinmi ?</i> (OG'E, 81).
Ruhiy holat, mumkin	2. <i>La bonne femme fut ravie de joie, et leur porta bien à souper, mais ils ne purent manger tant ils étaient saisis de peur!</i> (Ch.P. pp.29).	2. <i>Bechora ayolning quvonchi ichiga sig'mabdi. U bolalariga yegulik ovqat keltiribdi, lekin qo'rquvdan dahshatga tushgan bolalarning tomog'idan ovqat o'tmabdi</i> (OG'E, 82).

Undovlar ma'nosiga qarab ikkiga bo'linadi: 1) *his-hayajon ifodalovchi undovlar*; 2) *buyruq-xitob undovlari*.

Yuqorida keltirilgan misollarda birinchi holat qayd qilinib, ularda his-hayajonni anglatuvchi taajjub, g'azab va ruhiy holat (2) ma'nolari ifodalanyapti. Bu misollarning modallik xususiyati shuni ko'rsatadiki, ularda istak kategoriyasi *vouloir* fe'lining prezens indikativ shakli(1)da berilsa, **mumkinlik** kategoriyasi **pouvoir** modal fe'lining sodda o'tgan zamon shaklida ifoda etilgan.

Fransuz ertaklarida his-hayajon **Ah**(1) va personajlarning ruhiy holati **ravie de joie, saisis de peur**(2) lisoniy birliklari yordamida berilgan.

Fransuz ertaklarining o'zbek tili vatiantida esa ushbu semantik kategoriya undov so'z hamda undalma birligi "**Ha, badbaxt xotin**" (1) va istak kategoriyasi fe'lning analitik shakli bilan, ya'ni fe'l asosi **alda + moqchi** affiksi + ko'makchi fe'l **bo'libsan** yordamida berilgan. Ikkinchi gapda esa **istak** kategoriyasi gap mazmunida aks etadi. Personajlarning ruhiy holatini **quvonch, qo'rquv** so'zlari ifoda etmoqda. Misollarning semantik ma'nosi ko'ra ish-harakat birinchi gapda amalga oshganligi norozilikka olib kelgan bo'lsa, ikkinchi gapda esa amalga oshishi mumkin bo'lgan holat ifodalangan.

Qolaversa, **mumkinlik** semantik kategoriyasining bir qancha kategoriyalar bilan birga qator boshqa semalar borligini ko'rish mumkin. 3-jadvalga qarang:

Modallik turlari	Fransuz tili	O'zbek tili
Mumkinlik murojaat, zaruriyat, holat	1. <i>Ce dernier ne pouvaitse consoler d'avoir un si pauvre lot: «Mes frères, disait-il, pourront gagner leur vie honnêtement en se mettant ensemble; pour moi, lorsque j'aurai mangé mon chat, et que je me serai fait un manchon de sa peau, il faudra que je meure de faim»</i> (C.F.51).	1. <i>Kenjatoyning o'ziga tegishli merosdan sira ko'ngli to'lmabdi: "Akalarim agar birlashsalar, tegirmonni bemalol yurgizib, kunlarini kechira oladilar, – debdi o'z- o'ziga kenja o'g'il, – mening bo'lsa, mushukni pishirib yeb, terisini po'stak qilishdan o'zga ilojim yo'q, u yog'iga ochlikdan o'lishimni kutib votsam kerak"</i> (OG'E, 34).



Temporallik zaruriyat, makon, shart, maslahat, intensivlik, istak	2. Un jour qu'il sut que le roi <b>devait aller</b> à la promenade, sur le bord de la rivière, avec sa fille, la plus belle princesse du monde, il dit à son maître: «Si vous <b>voulez</b> suivre mon conseil, votre fortune est faite (52).	2. Kunlarning birida mu-shuk qirol va uning sohibjamol qizi daryo yoqalab <b>sayohatgachiqish-larini</b> eshitib qolibdi, yugurib borib xo'jasiga debdi: – Agar siz bir umr baxtli <b>bo'lishni istasangiz</b> , mening <b>maslahatimga quloq soling</b> (OG'E, 36).
Istak, egalik	3. Le Roi, qui passa un moment après, <b>voulut savoir</b> à qui <b>appartenaient</b> tous les blés qu'il voyait. «C'est à M. le marquis de Carabas», répondirent les moissonneurs (p.55).	3. Qirol bug'doyzorning kimga qarashli ekanligini <b>bilmoqchi bo'libdi</b> . “Bu yerlarning hammasi markiz Karabasga <b>tegishli</b> ”, – deyi-shibdi o't o'ruvchilar baro-bariga (OG'E, 39).
Temporal- lik, istak	4. Cependant le roi, qui vit en passant le beau chateau de l'ogre, <b>voulut entrer</b> dedans (p.55).	4. Bu orada qirolning foytuni qasrning oldidan o'ta boshlabdi. Ogrning savlatli va ko'rkam qasrini ko'rgan qirolning ichiga <b>kirmoqchi bo'libdi</b> (OG'E, 42).

**Pouvoir fe'li** (1) bilan mumkinlik kategoriyasi imperfekt va kelasi zamonlarda, **falloir** (1), **devoir** (2) **zaruriyat** kategoriyasi kelasi va imperfekt zamonlarida, **vouloir fe'li** esa prezens va sodda o'tgan zamon aniq mayli zamonlarida istak kategoriyasini, ya'ni kategoriyasi turli xil modal fe'llar ifodalamoqda. Ularda holat — **de faim** (1), temporallik — **Un jour** (2), **un moment** (3), **sependant** (4), makon — **le bord de la rivière** (2), shart — **si** (2), possessivnost — egalik **appartenaient** (3) semantik ma'nolari ifodalanganligi kuzatiladi.

O'zbek tilidagi variantida esa mumkinlik kategoriyasi qator leksik birliklar, jumladan, **ko'ngli to'lmabdi**, **kechira oladilar**, **ilojim yo'q** (1), zaruriyat kategoriyasi **kutib yotsam kerak** (2), egalik kategoriyasi **tegishli** (3), istak kategoriyasi esa **istasangiz** (2), **bilmoqchi bo'libdi** (3), **kirmoqchi bo'libdi** (4) kabi fe'ling analitik shakllari bilan ifodalangan.

Mumkinlik kategoriyasi esa **pouvoir** fe'li yordamida imperfekt, prezens indikativ zamonida, istak kategoriyasi **vouloir** fe'li bilan kelib, ushbu fe'l imperfekt, o'tgan zamon, hozirgi zamon shart mayli zamonlarida qo'llanilmoqda. 4-jadvalga qarang:

Modallik turlari	Fransuz tili	O'zbek tili
Istak, to'siqsiz, mumkinlik, holat, zaruriyat	1. Il y eut même plusieurs gentils hommes qui <b>voulurent l'épouser</b> , quoi qu'elle n'eût pas un sou. Mais elle leur dit qu'elle ne <b>pouvait se résoudre</b> à abandonner son pauvre père dans son malheur? (BB, 22).	1. Biroq yigitlardan biri debdi: Agar Sohibjamol menga tegishga <b>rozi bo'lsa</b> , <b>jon-jon</b> deb uylanaman, sepi bo'lmasaham <b>mayliga</b> . Iltifotingiz uchun tashakkur. Ammo men shunday og'ir damda otamni <b>tashlab ketolmayman</b> . U bilan birga <b>bo'lishim kerak</b> (JSE, 48-49)



[Intensivlik, holat, istak, inkor	2. Est-ce sa faute si elle est si laide et si elle a si peu d'esprit? Elle est bonne, cela vaut mieux que tout le reste. Pourquoi n'ai-je pas voulu l'épouser? (BB, p. 371).	2. Axir, xunuk bo'lsa, uning aybi nima? Nega unga turmushga chiqishni istamadim? (JSE,59)
-----------------------------------	--	---

Ushbu semantik kategoriyalar bilan birga boshqa semalar, jumladan, to'siqsizlik, holat va intensivlik (**si**) ma'nolari ham gaplar mazmunida va tarkibida mujassam ekanligi ko'rinib turibdi.

O'zbek tilidagi tarjimada mumkinlik — **mayliga, keta olmayman, chiqolmayman, bo'lishim kerak, rozi bo'lsa, jon-jon** lisoniy birliklari asosida, istak ma'nosi **chiqishni istamadi** kabi modal so'zini qo'shish yo'li bilan o'z ifodasini topgan.

Fransuz tilidagi **pouvoir** modal fe'li **mumkinlik** kategoriyasini qo'llashda yetakchi fe'l vazifasida kelib, o'zbek tilida **qila olmoq, qilmoq, biror narsani qilishning uddasidan chiqmoq** kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ertaklardagi qo'shma gaplarda **mumkinlik** kategoriyasi qo'llanganda turli semantik kategoriyalar (**payt, sabab, qiyos, reallik, shart, o'rin, inkor, taklif, maslahat, holat, istak va hokazo**) bilan ham uyg'unlashib, turli xil kategoriyalarni hosil qiladi.

Masalan: (FE)»*Le jeune prince a tiré la bague et l'a montrée à son père:»J'épouserai la fille qui pourra passer cette bague à son doigt*»(CP.PA); *Mais comme elle avait beaucoup d'esprit elle ne pouvait prendre une résolution sur cette affaire*»(CP.RH,30); *Cendrillon les regardait.Elle a reconnu sa pantoufle et a dit:»Puis-je l'essayer?»*»(CP.C, 41); *«Elle pouvait dire tout ce qui lui plaisait d'une manière fine et naturelle»* (CP.RH, 30); 70); *«Vous avez le don du pouvoir rendre beau un homme que vous aimerez. Vous pouvez tout faire»*. (C.P.R.H., 31).

Mumkinlik kategoriyasini ifodalashda prezens, imperfekt, futurum, preterit plyuskvamperfekt zamonlarining indikativ, prezens va perfekt kondisional, prezens va perfekt syubjonktiv mayllaridan foydalaniladi. Ushbu zamon va mayllar ichida indikativ mayli eng ko'p uchraydi. Modal fe'l yakka holda qo'llanmasligi, balki **bitta, ba'zan ikkita mustaqil fe'l** bilan ham kelishi kuzatiladi: *«Il ne pu t'envenir à bout, car il trouva la porte de la maison fermée à double tour Comme il n'en pouvait plus de fatigue, il s'endormit après s'être reposé quelque temps*(PPP, 181).

### Natijalar

Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, bizning nazarimizda, sanab o'tilgan til belgilari modallik mantig'i sistemasini tashkil qiladi, predikatlar hisobini aniqlashda faol ishtirok etadi. Turli mazmundagi xabar, ma'lumotlarni yorqin ifoda etish, aniq hamda tejamli bayon qilish va uzatish uchun xizmat qiladi, leksik, semantik, grammatik kategoriyani hosil qilib, mayl kategoriyasiga nisbatan yuqori sathni egallaydi.

Yuqoridagi modallik kategoriyasining ifodalanishi haqida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, dunyo tilshunosligida mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy

qarashlarni umumlashtirib, modallik kategoriyasiga quyidagicha munosabat bildirish mumkin:

*modallik — tilning eng murakkab, serqirra va sermazmun, ilmiy ahamiyatga ega, muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etuvchi keng qamrovli tadqiqot obyekti hisoblanadi;*

*modallik kategoriyasi soʻzlovchining real borliqqa boʻlgan munosabatini ifodalashda muhim rol oʻynaydi;*

*modallik doirasidagi kategorial birliklarning turlari, oʻxshash va differensial belgilarning semantik maydonda oʻzaro kesishish holatlari mavjud hamda modallikning boshqa semantik kategoriyalar bilan bogʻliqligi muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi;*

*modallik kategoriyasining vazifasini, ifodalash vositalarini, yuzaga kelish shartlarini, oʻziga xosliklarini aniqlashda asosiy eʼtiborni shaxs va zamon kategoriyasiga qaratish zarur;*

*matnlarni tahlil qilishda, ularning lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishda matn modalligi katta rol oʻynaydi;*

*modallik va baholash kategoriyalari oʻzaro uzviy bogʻlangan boʻlib, mazkur masalani oʻrganish badiiy matn sharoitida oʻta dolzarb hisoblanadi;*

*modallik kategoriyasini qiyosiy aspektida oʻrganish, yaʼni turli tizimli tillarni chogʻishtirib tahlil qilish jarayonida, ularning oʻxshash va farqli xususiyatlarini ochib berishda, dunyo manzarasining oʻziga xos ichki til xususiyati va milliy xususiyatini tasvirlashda katta yordam beradi;*

*modallikni ifodalashda frazeologizmlarning oʻrni beqiyos; tilshunoslikdagi dalillarga psixologik lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtai nazardan yondashib, modallik kategoriyalarini 5 guruhga ajratish mumkin: 1) bilish va anglash; 2) fikrlash va fikr bildirish; 3) muloqot va muloqotga kirishish; 4) his-tuygʻu; 5) xohish-istak.*

Grammatik jihatlarini ochib berishda modallik kategoriyasini alohida oʻrganib chiqish, ayniqsa, feʼl mayllarida grammatik vosita sifatida ifodalanishiga diqqatni qaratish muhim sanaladi.

### Muhokam

Modallik kategoriyasini tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy-umumiy taʼriflasak: “Modallik bu butun bir olam, ulkan va tubsiz dengiz, bepoyon oʻrmon, cheksiz sahro, chegarasi yoʻq fazo, serhosil dala, soʻnmas olov, viqorli togʻ, sirli gʻor..., — predmetlar va gaplar orasidagi turli munosabatlarni anglatib, koʻplab modal maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qilgan shartli til belgisi, tilning eng murakkab, serqirra va sermazmun, ilmiy ahamiyatga ega, muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etuvchi keng qamrovli kategoriya.”

Insoniy omillar tildagi turli voqea-hodisalarning funksional maqomidagi anʼanaviy qarashlarni oʻz vaqtida qayta koʻrib chiqib, oʻzgartishlar kiritishni taqazo etadi. Shu jumladan, modallik kategoriyasidagi qarashlar ham eʼtibordan xoli emas.

Fransuz tilida “modus” konsepti maxsus sodda gap struktur sxemasini ot, sifat, son, olmosh bilan birgalikda qabul qilishi mumkin.

O‘zbek tilida “modus” konsepti leksik-frazeologik sathda qoladi. O‘zbek tilida ham modusning leksik vositalar bilan ifodalanishida, modal ma’nolarni tarjima jarayonida kirish so‘zlar va gaplar ifodalab keladi.

O‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilishda ko‘plab turli xil o‘zbekcha kirish so‘zlar haqidagi ma’lumot shaxssiz il olmoshining yagona konstruksiyani tashkil qilishi bilan farq qilishi, sintaktik konsept modusga asoslanishi bilan izohlanadi.

Modallik munosabatlari ham modallik, ham modus va diktum tadqiqotlarida muhokama qilinsa-da, ammo ular orasidagi ziddiyat yetarlga aniqlanmagan. Lingvistik adabiyot modus haqida aniq yagona ta’rif bera olmaganligining guvohi bo‘lamiz. Bu lingvistik modallik bilan mantiqiy modallik to‘laligicha bir-biriga mos kelmasligi bilan izohlanadi.

Bir voqelikning o‘zi ham modus, ham modallik sifatida qaralishi mumkin. Diktum nominativ gapda ob’yektlar orasidagi mazmun mohiyatini ochib beradi, modus— modal-kommunikativ aspektda so‘zlovchilarning muloqot maqsadlarini ifodalaydi. Modus haqidagi fikrlar so‘zlovchi shaxs tomonidan bildiriladi. Modusni nutq aktining maqsadi va shartiga tegishli deb aytish mumkin. Diktum baholash mazmunni ifodalaydi, modus esa baholashda turli xil gapning semantik-sintaktik variantlarini hosil qilish xususiyati bilan ajralib turadi.

Tilshunoslikda modallik kategoriyasining qo‘llanilish ko‘lami nihoyatda keng bo‘lib, muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etuvchi tadqiqot obyekti hisoblanadi. Modallik tushunchasi so‘zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi ma’no kategoriyasi sifatida qaraladi, ya’ni obyektiv voqelik so‘zlovchi ongida aks etadi va u o‘z munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida bildiradi.

Modallik kategoriyasi turli lisoniy vositalar yordamida namoyon bo‘lib, obyektiv modallik diktumga, subyektiv modallik esa gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kirishi kuzatiladi. Shuningdek, sintaktik modallik gapni shakllantirishdagi o‘rni va subyektivning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, u ham ikki guruhga — obyektiv va subyektiv modallikka bo‘linadi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik zamiridagi qo‘shimcha modallikdir.

Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvo-kognitiv va milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

Modallik kategoriyasining namoyon bo‘lishida keng imkoniyatlarning mavjudligi, mazkur kategoriyaning umumlisoniy hodisa ekanligidan va uning o‘rganilishi til qurilishining mohiyatini anglash uchun g‘oyat muhimligidan dalolat beradi. Buni fransuz va o‘zbek ertaklaridagi modallik kategoriyasining tahlili ham isbotlaydi. Ikki noqardosh til ertaklaridagi modallik kategoriyasining lingvokognitiv hamda milliy-madaniy xususiyatlarining tadqiqi chog‘ishtirma tilshunoslik ravnaqiga keng yo‘l ochib beradi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, modus va diktum tushunchalari modallik kategoriyasi lisoniy birliklarda namoyon bo‘ladi, obyektiv modallik diktumga, subyektiv modallik esa gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kiradi.

Fikrimizcha, diktum va modus bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldirib kelgan bitta voqeani ifodalaydi. Bir voqelikning o‘zi ham modus, ham modallik sifatida qaralishi mumkin. Birinchidan, diktum nominativ gapda obyektlar orasidagi mazmun mohiyatini ochib bersa, ikkinchidan, modus modal-kommunikativ aspektda so‘zlovchining muloqot maqsadini ifodalash uchun xizmat qiladi. Modusni nutq aktining maqsadi va shartiga tegishli deb aytish mumkin. Modus haqidagi fikrlar so‘zlovchi shaxs tomonidan bildiriladi. Diktum baholash shaklini (mazmunni) ifodalagan bo‘lsa, unda modus esa baholashda turli xil gapning semantik-sintaktik variantlarini hosil qilish xususiyati bilan ajralib turadi.

Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining ifodalanish xususiyatlaridan kelib chiqib, modallik kategoriyasiga xos to‘rtta semantik guruhga ajratish mumkin: modallik funksional-semantik kategoriyasi ko‘p qamrovli tadqiqot ob‘yeksi hisoblanib, uning asosiy mohiyati shaxs va zamon kategoriyasi bilan birga gapning asosiy bo‘laklarini shakllantirib, so‘zlovchining real borliqqa bo‘lgan munosabatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi; modallik gapning semantikasini ochib berishda to‘rt aspektni qamrab olishi, jumladan, signifikativ, referensial, modus va diktum ma‘nolari; gap mazmunini baholashda subyektiv-modallik xususiyatlarini ochib berishda aksiologik modallik keng semantik maydonni egallashi; matnlarni tahlil qilish va ularning lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berishda matn modalligi katta rol o‘ynashi; modallik va baholash kategoriyalari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, mazkur masalani o‘rganish badiiy matn sharoitida muhimligidir.

Modallik kategoriyasining turli tillarda ifodalanishi va ular orasidagi umumiy farqlar: so‘zlovchi aytayotgan fikrning gapdagi maqsadi va gapning kommunikativ funksiyasi, tasdiq va inkor ma‘nolarining ifodalanishi; semantik ma‘nolarning ikki turi, so‘zlovchi tomonidan voqeliklar va so‘zlovchining unga xabar qilingan voqelikka ishonchlilik darajasining baholanishi; so‘zlovchining gap mazmunidagi his-tuyg‘u va sifat fazilatlarining ifodalanishi; modallikning obyektiv va subyektiv kategoriyalarga bo‘linishi; konnotativ modallik ma‘nolarining ifodalanishi; fransuz va o‘zbek ertaklarida epistemik modallikning ko‘proq qo‘llanishi kabi semantik guruhlarga ajratilib asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Modus va diktum tushunchalari modallik kategoriyasining lisoniy birliklarida namoyon bo‘lishi, diktum — voqelikni aks ettirsa, modus so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalashi, tilshunoslikda modallik, modus va diktum kategoriyalarining o‘zaro bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси — халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. 8-том. — Тошкент: Ўзбекистон, 2000. — 504 б.

2. Абдуразаков М.А. Семантическая структура высказывания (Семантические типы субъектов и предикатов): Автореф. дис. докт. филолог. наук. — М., 1985. — 28 с.
3. Алиева Э.Н. О модальности невозможности в лезгинском языке в сопоставлении с русским и английским // Филологические науки. — 2005. — № 5. — С. 97–102.
4. Аристотель. Категории. С приложением «Введения», Порфирия к Категориям» Аристотеля. — М., 1939. 25–30 с.
5. Балли Ш. Язык и жизнь. — М., 2003. — 44–60 с.
6. Бикель М. М. Языковые средства выражения побудительности и их стилистическое значение (на материале немецкого языка): автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Л., 1968. — 17 с.
7. Боймирзаева С. Матн модаллиги. — Т.: Фан, 2010. — 151 б.
8. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных словах в русском языке. Исследования по русской грамматике: избр. труды. — М.: Наука, 1998. — 321 с.
9. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. — М.: Высшая школа, 1986. — 312 с.
10. Гетман З.А., Архипович Т.П. Модальность как общетекстовая категория // Вестник МГУ. — Сер.19. — 2006. — № 2. — 34–48 с.
11. Горбачевская С.И. Немецкие модальные частицы как иллюкутивные индикаторы (опыт сравнительно-сопоставительного анализа) // Вестник МГУ. — Сер.19. — Лингвистика и международная коммуникация. — 2005. — №1. — 21–29 с.
12. Ёкубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. — Т.: Фан, 2005. — 224 б.
13. Ёкубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланиш хусусиятлари. Доктр. дис. — Т., 2007. — 315 б.
14. Каксин А.Д. К вопросу о средствах выражения модальности в хантыйском языке // Вестник Московского университета. — Сер.9. Филология. — 2009. — №1. — 56–62 с.
15. Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. — М., 2004. — 168 с.
16. Краснова Т. И. Субъективность — модальность. — СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского госуд. ун-та экономики и финансов, 2002. — 189 с.
17. Кривонос А.Т. О модальных частицах в немецком языке. — Иркутск, 1963. — 47–82 с.
18. Крылова Э.Б. Роль модальных частиц в формировании семантики императивов в датском языке // Вестник МУ. — Сер. 9. Филология. — 2009. — № 2. — С. 31–48.
19. Лейбниц Г.В. Сочинения в четырех томах, том 3. — М.: Мысль, 1984. — 734 с.
20. Лопарева Д.К. Авторская модальность: содержание и объем понятия (проблемы фразеологического знака) // Вопросы филологии. — 2005. — №3 (21). — С.13–25.
21. Махмудов Н., Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. — Т.: Фан, 1992. — 89 б.
22. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6 т. — Т., 2000. — 52 б.



23. Мур Д.Э. Доказательство внешнего мира. Сост., вступит. ст. и коммент. А.Ф.Грязнова. — М., 1993. — 66–84 с.
24. Панфилов В. З. Грамматика и логика. — М., 1963. — 80 с.
25. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. — Т.: Ўқитувчи, 1980. — 448 б.
26. Brunot F. La pensée et la langue: Methode, principe et plan d'une théorie nouvelle du langage appliquée au français. — P.: Masson, 1965. — 982 p.
27. Halliday M.K. System and function in language: Selected papers. Ed. by G.R. Kress. — London: Oxford Univ.Press, 1976. — 197 p.
28. Sinclair J. Beginning the Study of Lexis. — Londres: Longman, 1970. — 62–71 p.

### References

1. Karimov I.A. *Millii istiklol mafkurasi — khalk e"tikodi va buyuk kelazhakka ishonchdir. Ozod va obod vatan, erkin va farovon xalet — pirovard maksadimiz* (The ideology of national independence is the people's faith and belief in a great future. A free and prosperous homeland, a free and prosperous life is our ultimate goal volume 8), Tashkent: Uzbekiston, 2000, 504 p.
2. Abdurazakov M.A. *Semanticheskaya struktura vyskazyvaniya (Semanticheskie tipy sub"ektov i predikatov)* (Semantic structure of the utterance (Semantic types of subjects and predicates)): extended abstract of Doctor's thesis, Moscow, 1985, 28 p.
3. Alieva E.N. *Filologicheskie nauki*, 2005, No 5, pp. 97–102.
4. Aristotel'. *Kategorii. S prilozheniem «Vvedeniya», Porfiriya k Kategoriyam» Aristotelya* (Categories. With the appendix "Introduction", Porphyry to the Categories of Aristotle), Moscow, 1939, 25–30 p.
5. Balli Sh. *Yazyk i zhizn'* (Language and life), Moscow, 2003, 44–60 p.
6. Bikel' M. M. *Yazykovye sredstva vyrazheniya pobuditel'nosti i ikh stilisticheskoe znachenie (na materiale nemetskogo yazyka)* (Linguistic means of expression of motivation and their stylistic meaning (based on the material of the German language)), extended abstract of Doctor's thesis, Leningrad, 1968, 17 p.
7. Boimirzaeva S. *Matn modalligi* (Text modality), Tashkent: Fan, 2010, 151 p.
8. Vinogradov V.V. *O kategorii modal'nosti i modal'nykh slovakh v russkom yazyke. Issledovaniya po russkoi grammatike: izbr. trudy* (About the category of modality and modal words in the Russian language. Research on Russian grammar: selected works), Moscow: Nauka, 1998, 321 p.
9. Gak V.G. *Teoreticheskaya grammatika frantsuzskogo yazyka. Morfologiya* (Theoretical grammar of the French language. Morphology), Moscow: Vysshaya shkola, 1986, 312 p.
10. Getman Z.A., Arkhipovich T.P. *Vestnik MGU*, ser. 19, 2006, No 2, pp. 34–48.
11. Gorbachevskaya S.I. *Vestnik MGU*, ser. 19, Lingvistika i mezhdunarodnaya kommunikatsiya, 2005, No 1, pp. 21–29.
12. Eкubov Zh.A. *Modallik kategoriyasining mantik va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari* (Semantic features of the representation of the modality category in logic and language), Tashkent: Fan, 2005, 224 p.

13. Ekubov Zh.A. *Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanish xususiyatlari* (Semantic features of the representation of the modality category in logic and language), doctor's thesis, Tashkent, 2007, 315 p.
14. Kaksin A.D. *Vestnik Moskovskogo universiteta*, ser. 9. Filologiya, 2009, No 1, pp. 56–62.
15. Kordi E.E. *Modal'nye i kausativnye glagoly v sovremennom frantsuzskom yazyke* (Modal and causative verbs in modern French), Moscow, 2004, 168 p.
16. Krasnova T. I. *Sub"ektivnost' – modal'nost'* (Subjectivity is a modality), Saint-Petersburg: Izd-vo Sankt-Peterburgskogo gosud. un-ta ekonomiki i finansov, 2002, 189 p.
17. Krivonosov A.T. *O modal'nykh chastitsakh v nemetskom yazyke* (About modal particles in German), Irkutsk, 1963, 47–82 p.
18. Krylova E.B. *Vestnik MGU*, Ser. 9. Filologiya, 2009, No 2, pp. 31–48.
19. Leibnits G.V. *Sochineniya v chetyrekh tomakh* (Essays in four volumes), volume 3, Moscow: Mysl', 1984, 734 p.
20. Lopareva D.K. *Voprosy filologii*, 2005, No 3 (21), pp.13–2.
21. Makhmudov N., Nurmonov A. va boshk. *Uzbek tilining mazmunii sintaksisi* (Content syntax of the Uzbek language), Tashkent: Fan, 1992, 89 p.
22. *Uzbekiston Millii Entsiklopediyasi* (National Encyclopedia Of Uzbekistan), 6 volume, Tashkent, 2000, 52 p.
23. Mur D.E. *Dokazatel'stvo vneshnego mira* (Proof of the outside world), Moscow, 1993, 66–84 p.
24. Panfilov V. Z. *Grammatika i logika* (Grammar and Logic), Moscow, 1963, 80 p.
25. Shoabdurakhmonov Sh., Askarova M. *Hozirgi uzbek adabii tili* (Current Uzbek literary language), Tashkent: Ukituvchi, 1980, 448 p.
26. Brunot F. *La pensée et la langue: Methode, principe et plan d'une théorie nouvelle du langage appliquée au français*, Paris: Masson, 1965, 982 p.
27. Halliday M.K. *System and function in language: Selected papers*. Ed. bu G.R. Kress, London: Oxford Univ.Press, 1976, 197 p.
28. Sinclair J. *Beginning the Study of Lexis*, Londres: Longman, 1970, 62–71 p.